

Mo‘tabar Tojiboyeva "Jasorati uchun" mukofotidan voz kechganini e‘lon qildi

🕒 8 Март 2011



🔗 Баҳам кўринг

O‘zbekistonlik taniqli inson huquqlari himoyachisi Mo‘tabar Tojiboyeva 2009 yilda taqdirlangan AQShning "Jasorati uchun" mukofotidan voz kechishini e‘lon qildi.

Bu qarorga Tojiboyeva xonim Qirg‘iziston Prezidenti Roza O‘tinboyaning bu yilgi "Jasorati uchun" mukofotiga munosib topilgani tufayli kelganini e‘lon qildi.

"Men 2009 yilda Hillari Klinton va Mishel Obama xonimlardan


"Jasoratli ayol" mukofotini olganimda, menga qo‘shilib millatdoshlarimning ham boshi ko‘kka yetgandi. Bugun esa mana shu nufuzli mukofotning minglab o‘zbeklarni xonavayron qilgan iyun qirg‘ini paytida vaqtinchalik hukumatni boshqargan Qirg‘iziston Prezidenti Roza O‘tinboyaning berilishi hanuzgacha Qirg‘izistonda davom etayotgan millatchilik qurbonlari bo‘layotgan o‘zbek xalqiga nisbatan haqoratdek yangradi", deya e‘lon qilgan Mo‘tabar Tojiboyeva.

"Ta‘riflashga til ojiz bunday vahshiyliklarni boshidan o‘tkazib, bugungacha o‘ziga kela olmayotgan Qirg‘izistonning o‘zbek millatiga mansub fuqarolari holidan hech bo‘lmasa bir marta xabar olmagan, qo‘l ostidagi zo‘ravonlar oldida "o‘zbek mahallasi" nomini tilga olishdan qo‘rqqan bu ayol qaysi jasorati uchun bunday nufuzli mukofotga loyiq topildi?", degan inson huquqlarini himoya qilish "O‘tyuraklar klubi" rahbari Mo‘tabar Tojiboyeva.

Tojiboyeva xonim ushbu qarorga kelish og‘ir bo‘lganini aytdi.



Mo‘tabar Tojiboyeva 2009 yili AQShning "Jasorati uchun" mukofoti bilan taqdirlangan



Бу ҳикояни баҳам кўринг Баҳам кўриш ҳақида



 [Тепага қайтиш](#)

Бошқа мавзулар >



"Сурияга чиқиш визаси учун пора олган"

 10 Июл 2016



Шоу- бизнесда Гулнора Каримовани "соғинишган"

 10 Июл 2016



40 даража жазирамада деҳқон уйида ўтирсинми?

 8 Июл 2016

Муҳаррир танлови



**Жаҳон Чемпионати-2018:
Ким ғалаба қилади? BBC
News ўйини билан бир
башорат қилиб кўринг**



**Москвадаги ўзбеклар:
“Пулсиз қолдик, қарзга
ботдик...”**



**Собиқ уйсиз дунёни
очликдан қандай
қутқармоқчи?**



**Дунёда мисли кўрилмаган
тажриба: Ўзбекистон Орол
денгизи тубини ўрмонга
айлантирмоқда**



**Инглизча «дунёнинг
севимли тили» бўлиб қола
оладими?**



**Рўзанинг танамизга
таъсирини биласизми?**



**Би-Би-Си охири замон
ҳақида хабар берди(ми?)**

Энг кўп ўқилган

Каттақўрғон милицияси раҳбарларига чора кўрилди

1

"Менинг исмим Жиҳод"

2

Россия, Москва, футбол, ЖЧ-2018: Франция жаҳон чемпиони

3

Самарқанд ҳокими ва ечинтирилган аёл ўртасида қандай фарқ бор?

4

Би-би-си Ўзбек хизмати Интернетда

Facebook

Twitter

YouTube

Мой мир

Google+

Telegram

Одноклассники

Instagram

Хизматлар



RSS

Sahifa xaritasi

News

Sport

Weather

Radio

Foydalanish shartlari

BBC haqida

Shaxsiy ma'lumot siyosati

Cookies

Accessibility Help

Parental Guidance

Bi-bi-si bilan bog'laning

Get Personalised Newsletters

Биз билан реклама қилинг

Реклама танлови

Copyright © 2018 Би-би-си. Bi-bi-si tashqi saytlar uchun mas'ul emas **Tashqi saytlar linklariga munosabatimizga doir**